



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

*2025- yil yanvar-fevral oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28*



TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 138534,2 ming AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 32297,0 ming AQSH dollariga yoki 18,9 % ga pasaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2025 yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari)

Tashqi savdo aylanmasi

2025- y.: **138534,2 (-81,1%)**

(2024- y.: **170831,2**)



Saldo

2025- y.: **-30087,5** (2024- y.: **25085,4**)



Eksport

2025- y.: **54223,4 (-74,4 %)**

(2024- y.: **78872,9**)




Import


2025- y.: **84310,9 (-86,1 %)**

(2024- y.: **97958,3**)

TSA'dagi ulushi




QIT'ALAR KESIMIDA TSA (2025-yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



<p><u>Yevropa</u> Eksport – 4319,0 Import – 14492,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 13,6 %</p>	<p><u>Osiyo</u> Eksport – 39783,9 Import – 66133,2 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 60,6 %</p>	<p><u>Afrika</u> Eksport – 4763,2 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 3,4 %</p>
<p><u>Shimoliy Amerika</u> Eksport – 4039,5 Import – 3667,8 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 5,6 %</p>	<p><u>Janubiy Amerika</u> Eksport – 1198,9 Import – 17,9 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,9 %</p>	<p><u>Avstraliya</u> Eksport – 0,1 Import – 0,0 Umumiy hajmga nisbatan, % da – 0,0 %</p>

AYRIM ITTIFOQ VA IQTISODIY TASHKILOTLAR BILAN TSA (yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



TSAda eksport hajmi 54223,4 ming AQSH dollariga (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 25,6 % ga kamaydi) va import hajmi 84310,9 ming AQSH dollariga (13,9 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – 30087,5 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.





QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari)

Ta'kidlash joizki, Qozog'iston Qashqadaryoning eng yirik tashqi iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi (Xitoy va Turkiya, Rossiyada, Germaniyadan keyin). Bunga sabab quyidagilar bo'lishi mumkin: umumiy chegaraning mavjudligi, MDHning erkin savdo hududida savdo qilishi hamda so'nggi paytlarda o'zaro iqtisodiy aloqalarning keskin erkinlashtirilishi.


Qashqadaryo viloyati jahonning 56 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (14,8 %), Rossiyada (11,7 %), Pokistonda (8,9 %), Turkiyada (9,5 %) va Germaniya (5,3 %) qayd etilgan.







<p>XXR</p> <p>TSA – 20447,0</p> <p>Eksport: 1896,7 Import: 18580,7</p>  14,8 %	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 16272,3</p> <p>Eksport: 12763,7 Import: 3508,5</p>  11,7 %	<p>Qozog'iston</p> <p>TSA – 5037,0</p> <p>Eksport: 772,2 Import: 4264,8</p>  3,6 %	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 13160,4</p> <p>Eksport: 7213,7 Import: 5946,7</p>  9,5 %	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 12320,5</p> <p>Eksport: 7485,1 Import: 4835,4</p>  8,9 %
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 7314,0</p> <p>Eksport: 40,1 Import: 7273,9</p>  5,3 %	<p>BAA</p> <p>TSA – 181,6</p> <p>Eksport: 128,5 Import: 53,1</p>  0,1 %	<p>AQSH</p> <p>TSA – 7144,4</p> <p>Eksport: 4039,5 Import: 3104,9</p>  5,2 %	<p>Afg'oniston</p> <p>TSA – 4160,5</p> <p>Eksport: 2783,8 Import: 1376,6</p>  3,0 %	<p>Eron</p> <p>TSA – 2484,2</p> <p>Eksport: 2219,6 Import: 264,6</p>  1,8 %



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-fevral , ming AQSH dollari)

Davlatlar		2023- y.	2024- y.	2025- y.
XXR		8564,6	48420,6	20477,0
	<i>Eksport</i>	1031,0	5712,0	1896,6
	<i>Import</i>	7533,6	42708,6	18580,4
Rossiya		12443,4	17160,6	16272,3
	<i>Eksport</i>	8812,5	12426,1	12763,8
	<i>Import</i>	3630,9	4734,5	3508,5
Qozog'iston		5917,7	2469,2	5037,0
	<i>Eksport</i>	1753,7	1809,2	772,2
	<i>Import</i>	4164,0	660,0	4264,8
Turkiya		19545,5	15158,6	13160,4
	<i>Eksport</i>	15421,9	12649,0	7213,7
	<i>Import</i>	4123,6	2509,6	5946,7
Koreya Respublikasi		1436,6	249,2	363,2
	<i>Eksport</i>	1,6	2,1	5,9
	<i>Import</i>	1435,0	247,1	357,3
Germaniya		692,3	7767,1	7314,0
	<i>Eksport</i>	61,8	0,0	40,1
	<i>Import</i>	630,5	7767,1	7273,9
Turkmaniston		19,8	164,7	655,7
	<i>Eksport</i>	15,0	57,5	6,2
	<i>Import</i>	4,8	107,2	649,5
Fransiya		439,7	266,9	1,2
	<i>Eksport</i>	0,0	0,6	1,2
	<i>Import</i>	439,7	266,3	0,0
Afg'oniston		850,4	1540,7	4160,5
	<i>Eksport</i>	850,4	1522,8	2783,9
	<i>Import</i>	0,0	17,9	1376,6
Hindiston		3464,1	1663,9	1360,6
	<i>Eksport</i>	3043,1	238,5	550,9
	<i>Import</i>	421,0	1425,4	809,7

Davlatlar	2023- y.	2024- y.	2025- y.
AQSH	278,2	8088,6	7144,4
 <i>Eksport</i>	1,8	7601,0	4039,5
<i>Import</i>	276,4	487,6	3104,9
Qirg'iz Respublikasi	3276,7	554,0	2120,5
 <i>Eksport</i>	3017,4	22,6	159,7
<i>Import</i>	259,3	531,4	1960,8
Belarus	808,0	233,3	86,8
 <i>Eksport</i>	69,6	230,9	85,8
<i>Import</i>	738,4	2,4	1,0
Tojikiston	572,6	2151,8	3002,8
 <i>Eksport</i>	428,1	2029,3	2914,1
<i>Import</i>	144,6	122,5	88,7
Litva	57,1	1809,0	160,3
 <i>Eksport</i>	0,0	99,2	84,3
<i>Import</i>	57,1	1709,8	76,0
BAA	5868,0	4782,4	181,6
 <i>Eksport</i>	5868,0	4419,3	128,5
<i>Import</i>	0,0	363,1	53,1
Eron	1343,6	3961,6	2484,2
 <i>Eksport</i>	1231,5	3337,9	2219,6
<i>Import</i>	112,1	623,7	264,6
Braziliya	0,0	257,6	291,1
 <i>Eksport</i>	0,0	251,6	289,9
<i>Import</i>	0,0	6,0	1,2
Chexiya	192,8	120,9	647,9
 <i>Eksport</i>	94,6	105,5	573,8
<i>Import</i>	98,2	15,4	74,1
Italiya	881,1	341,2	3588,3
 <i>Eksport</i>	0,0	101,0	830,8
<i>Import</i>	881,0	240,2	2757,5

QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI*

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)




Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 26,9% ulush bilan 37228,6 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Chiroqchi tumani 0,7% ulush bilan 918,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ulushi foizda, hajmi ming AQSH dollarida)



2025-yil yanvar-fevral oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 20,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2024 - yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga ko'paydi.

Qashqadaryo viloyati bilan savdo qilayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishi mazkur mamlakatlar iste'molchilari tomonidan viloyat eksportiga bo'lgan talabning oshishiga olib kelishi mumkin.

Viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA si 2025- yilning yanvar-fevral oylarida 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,1 % ga kamaydi va jami TSA dagi ulushi 79,6 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2025- yil yanvar-fevral holatiga ko'ra, 28207,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 17513,7 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 10694,2 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral, ulushi, % da)

Rossiya – 57,7



Qozog'iston – 17,9



Turkmaniston – 2,3



Qirg'iziston – 7,5




Belarus – 0,3



Tojikiston – 10,6



Ozarbayjon – 1,2



Ukraina – 1,9



Armaniston – 0,1



Moldova – 0,5




MDHning erkin savdo hududida savdo qilish, viloyatning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ijobiy tas'ir qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (57,7 %), Qozog'iston (17,9 %) hamda Qirg'iziston (7,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari)



Qashqadaryoning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 23527,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 13781,2 ming AQSH dollari, import hajmi esa 9746,6 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2025- yil yanvar-fevral)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 76 taga yetdi va ular tomonidan 54223,4 ming AQSH dollari qiymatidagi (2024-yilning mos davriga nisbatan 25,6 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral)



12,3

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,1 %

2. Ichimliklar va tamaki



0,0 %

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



12,8

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



1,5 %

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar



0,2 %

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



69,0 %

7. Sanoat tovarlari



0,2 %

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



0,0 %

9. Turli xil tayyor buyumlar



1,5 %

10. Boshqa tovarlar



0,0 %

11. Oltin



2,4 %

12. Xizmatlar


*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-fevral, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami eksport	72872,9	54223,4	137,0	74,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	7880,8	6694,2	87,9	84,9	10,8	12,3
Ichimliklar va tamaki	7,0	50,8	116,0	7,3 m.	0,0	0,1
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	14762,7	6951,7	120,3,	47,1	20,3	12,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	813,3	0,0	0,0	0,0	1,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	123,3	122,6	73,7	99,4	0,2	0,2
Sanoat tovarlari	48617,7	37401,7	97,5	76,9	66,7	69,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	663,0	94,8	87,5	14,3	0,9	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	0,0	0,2	0,0	0,0	0,0	0,0
Boshqa tovarlar	304,6	817,4	116,2.	2,7 m.	0,4	1,5
Xizmatlar	513,8	1276,7	79,5	3,0 m.	0,7	2,4

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,6% ni tashkil etib, ular asosan sanoat tovarlari (69,0%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,3%) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6694,2	84,9
Sabzavotlar va mevalar	4581,5	75,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1614,0	128,2
Go'sht va go'sht mahsulotlari	-	-
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	-	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	-	-
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	498,7	32,5
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	-	-
Tirik hayvonlar	-	-
Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	-	-
Ichimliklar va tamaki	50,8	7,2
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Ichimliklar	50,8	7,2
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo	0,0	0,0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	-	-
Metall rudalari va metall parchalari	-	-
Qog'oz massasi va makulatura	-	-
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	-	-
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	-	-
Tabiiy kauchuk	-	-
Probka va yog'och-taxtalar	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6951,7	47,1
Tabiiy yoki sun'iy gaz	6951,7	25,2
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	-	-
Elektr toki	-	-
Ko'mir, koks va briketlar	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	813,3	0,0
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	813,3	0,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	122,6	99,4
Noorganik kimyo moddalari	0,6	56,2
O'g'itlar	41,6	112,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	0,4	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	0,5	45,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	7,3	26,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	43,1	156,2
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	5,7	0,7-
Organik kimyo moddalari	-	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	37401,7	76,9
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	37269,3	112,1
Rangli metallar	-	-
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	-	-
Cho'yan va po'lat	76,5	23,0
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	-	-
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	-	-
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	94,8	14,3
Avtomobillar (havo yostiqchalaridagi transport vositalari ham)	-	-
<i>shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	21,3	-
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar va ularning elektr qismlari	0,5	0,1
Boshqa transport uskunolari	73,0	12,1
Turli xil tayyor buyumlar	0,2	0,0
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	-	-
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	35,2
Poyabzal	-	-
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	-	-
Blokli binolar, kanalizatsiya-suv quvurlari, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlagichlar	-	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	-	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar	-	-
Boshqa tovarlar	817,4	2,7 m.
Tuz;oltingugurt;tosh;suvash materiallari;ohak va sement	791,7	3,5 m.
Shisha va undan tayyorlangan buyumlar	8,0	122,3

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2025- yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga eksportning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga kamaygan.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-fevral, ulushi % da, hajmi ming AQSH



2025-yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, XXR, Qozog'iston, Turkiya, Afg'oniston, Fransiya va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 47,1 % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar)






QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-fevral)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Rossiya	12426,1	12763,7	103,0	102,7	2	1
XXR	5712,0	1896,7	87,5	33,2	4	8
Qozog'iston	1809,2	772,2	104,1	42,7	10	10
Turkiya	12649,0	7213,7	75,3	57,0	1	3
Afg'oniston	1522,9	2783,8	111,5	182,8	11	6
Fransiya	0,6	1,2	5,1 m.	2,0 m.	19	19
Qirg'iz Respublikasi	22,6	159,7	152,7	7,0 m.	18	13
Tojikiston	2029,3	2914,1	117,8	143,6	9	5
AQSH	7601,0	4039,5	2,2 m.	53,1	3	4
Pokiston	4581,5	7485,1	151,6	163,4	5	2
BAA	4419,3	128,5	2,4 m.	3,0	6	15
Ozarbajjon	685,4	218,4	105,0	31,9	12	12
Litva	99,2	84,3	150,4	85,0	15	16
Eron	3337,9	2219,6	105,1	66,5	7	7
Belarus	230,9	85,8	116,6	37,1	14	14
Turkmaniston	57,5	6,2	78,0	10,8	16	18
Latviya	27,7	14,9	109,6	53,8	17	17
Hindiston	238,6	550,9	3,5 m.	2,3 m.	13	11
Polsha	2658,0	1613,4	62,7	60,7	8	9

QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI *

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani 26,6 % bilan 19347,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yakkabog' tumani 0,6 % bilan 415,6 ming AQSH dollarini tashkil etgan.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.











MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2025- yil yanvar-fevral oylarida 4,2 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2024- yilning mos davriga nisbatan 4,0 martaga yoki 12,9 ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (23,2%), Qozog'iston (21,7%), Afg'oniston (10,2%) hamda Pokiston (10,5%) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.






MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2025- yil yanvar-fevral, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Uzum</p> <p>115,7 ming AQSH dollari</p> <p>86,7 tonna</p> <p>45,5 % ↓</p> 	<p>Karam</p> <p>453,3 ming AQSH dollari</p> <p>528,1 tonna</p> <p>20,5 % ↓</p> 	<p>Piyoz</p> <p>344,4 ming AQSH dollari</p> <p>1679,0 tonna</p> <p>17,6 % ↓</p> 	<p>Donli mahsulotlar</p> <p>2905,3 ming AQSH dollari</p> <p>896,8 tonna</p> <p>10,2 % ↓</p> 
<p>Pomidor</p> <p>130,2 ming AQSH dollari</p> <p>123,3 tonna</p> <p>85,2 % ↓</p> 	<p>Sitrus mevalar</p> <p>27,0 ming AQSH dollari</p> <p>10,9 tonna</p> <p>15,2 % ↓</p> 	<p>Bodring</p> <p>2,2 ming AQSH dollari</p> <p>2,0 tonna</p> <p>22,0 % ↓</p> 	<p>Sabzi</p> <p>114,5 ming AQSH dollari</p> <p>490,2 tonna</p> <p>82,7 % ↓</p> 



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2025- yil yanvar)

Davlatlar	tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Rossiya	974,7	1004,3	21,9
 Qozog'iston	911,0	256,1	5,6
 Pokiston	442,7	1936,1	42,2
 Afg'oniston	430,4	763,3	16,8
 XXR	0,0	0,0	
 Qirg'iz Respublikasi	0,0	0,0	
 Turkiya	90,6	17,2	0,4
 Belarus	0,0	0,0	
 Ozarbayjon	63,7	120,9	2,6
 Gruzija	420,3	151,4	3,3
 Iroq	624,0	108,0	2,3
 Eron	141,7	202,8	4,4
 Ukraina	0,0	0,0	0,0
 BAA	0,0	0,0	0,0
 Boshqa davlatlar	537,5	21,4	0,5

* qiymat ifodasidan

2025- yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiyaga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 21,9% ini), bu esa Eron eksport hajmiga nisbatan 5,0 barobarga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2025- yil yanvar-fevral oylari yakuni bo‘yicha 37269,3 ming AQSH dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 68,7 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 23,3 % ga pasaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxta tolasi (86,7 %), kiyim-kechak mahsulotlari (10,5 %) asosiy ulushni egallagan. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 29 ta davlatiga eksport qilindi.




TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollari, % da.



37269,3 (2024 y.: 48614,2)

Jami



32325,6 (43530,3)

Paxta tolasi



3925,8 (3490,8)

Kiyim – kechak



333,0 (768,9)

Ipak mato




684,9 (824,2)

Boshqalar

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 1276,7 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,4 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 3,0 martaga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (31,6 %), boshqa xizmatlar (50,6 %), AKT (17,6 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI

2025- yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 84310,9 ming AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 86,1 ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (73,0%), sanoat tovarlari (4,0%) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (6,7%) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral)



10,3%

1. Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar



0,0%

2. Ichimliklar va tamaki



1,5%

3. Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari



2,4%

4. Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar



0,2%

5. Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va muvlar



6,7%

6. Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar



4,0%

7. Sanoat tovarlari



73,0%

8. Mashinalar va transport asbob-uskunalari



0,1%

9. Turli xil tayyor buyumlar



1,8%

10. Boshqa tovarlar



0,0%

11. Xizmatlar

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13662,7 ming AQSH dollariga kamaydi va 84288,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 22,0 ming AQSH dollariga yetdi.

*Tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-fevral, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024	2025	2024	2025	2024	2025
Jami import	97958,3	84310,9	3,3 m.	86,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	18709,2	8677,9	7,0 m.	46,4	19,1	10,3
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo	641,1	1230,5	112,2	2,0 m.	0,7	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1370,2	2007,7	70,7	146,5	1,4	2,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	184,6	0,0	0,0	0,0	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	18748,1	5682,6	7,4 m.	30,3	19,1	6,7
Sanoat tovarlari	4372,9	3350,0	125,2	3,1 m.	4,5	4,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	52930,3	61567,9	3,0 m.	116,3	54,0	73,0
Turli xil tayyor buyumlar	62,4	61,0	0,0	97,8	0,1	0,1
Boshqa tovarlar	1526,7	1118,5	0,0	6,3 m.	1,1	1,8
Xizmatlar	5,6	22,0	1,9	3,9 m.	0,0	0,0

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2025- yil yanvar-fevral)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8677,9	46,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1582,4	24,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	59,9	100,2
Go'sht va go'sht mahsulotlari		
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	41,5	112,5
Sabzavotlar va mevalar	6096,9	113,2
Hayvonlar uchun ozuqalar	125,8	65,2
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	13,6	85,2
Moyli urug'lar va ularning mevalari	655,7	45,2
Ichimliklar va tamaki	-	-
Ichimliklar	-	-
Tamaki va tamaki mahsulotlari	-	-
Yoqilg'idan tashqari , nooziq-ovqat xomashyo	1230,5	2,0 m.
Tirik hayvonlar	1230,5	145,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	2007,7	146,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2007,7	112,2
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
Ko'mir, koks va briketlar	-	-
Elektr toki	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	184,6	0,0
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	184,6	0,0
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5682,0	30,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	478,1	56,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2401,6	44,3
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	352,3	2,4
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	-	-
Organik kimyo moddalari	421,4	23,2
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	19,1	8,2 m.
Noorganik kimyo moddalari	674,6	122,3
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	-	-
O'g'itlar	926,9	115,2

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2024- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	3350,0	3,1 m.
Cho'yan va po'lat	3091,4	2,8 m.
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	-	-
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	-	-
Rezina buyumlari	-	-
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	-	-
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
Rangli metallar	258,6	154,2
Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	-	-
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	61567,9	116,3
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	-	-
<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>	-	--
<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>	-	-
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	39412,4	125,2
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	14275,1	155,2
Boshqa transport uskunalari	7880,4	112,2
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Boshqalar	1118,5	6,3 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	240,2	17,2 m.
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	279,3	152,2
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	433,5	3,2 m.
Poyabzal	30,8	-
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	-	-
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	-	-

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2025- yil yanvar-fevral natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 12,7 % ni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 73,0 % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-fevral, ulushi % da, hajmi ming AQSH dollarida)



2025- yil yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyati 53 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasi, Turkiya, Turkmaniston va Germaniya) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2025- yil yanvar-fevral)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-fevral)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
XXR	42708,6	18580,4	165,5	43,5	1	2
Rossiya	4734,5	3508,5	105,7	74,1	3	6
Qozog'iston	660,0	4264,8	94,3	6,5 m.	8	5
Koreya Respublikasi	247,1	357,3	95,4	144,6	13	12
Turkiya	2509,6	5946,7	106,9	2,4 m.	4	4
Germaniya	7767,1	7273,9	102,5	93,6	2	3
Turkmaniston	107,3	649,6	122,6	6,0 m.	15	11
Hindiston	1425,4	809,7	95,9	56,8	7	10
AQSH	487,6	3104,9	124,1	6,4 m.	11	7
Belarus	2,4	1,0	122,2	41,6	19	18
Braziliya	6,0	1,2	126,7	20,0	18	17
Litva	1709,8	76,0	120,4	4,5	6	14
Chexiya	15,4	74,1	2,5 m.	163,2	17	15
Italiya	240,2	2757,5	129,7	11,5 m.	14	8
BAA	363,1	53,1	98,0	14,6	12	16
Fransiya	266,3	0,0	2,3 m.	0,0	12	19
Eron	623,6	264,6	110,3	42,4	9	12
Yaponiya	1875,7	21934,9	96,6	11,7 m.	5	1
Qirg'iz Respublikasi	531,4	1960,8	114,1	3,7 m.	10	9
Polsha	25,7	101,1	156,7	4,0 m.	16	13




QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI HAJMI (2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH doll.)

Import hajmi eng yuqori

bo'lgan hududlar

Ming AQSH dollari

Viloyatdagi
ulushi



2025 - yil yanvar-fevral


2024 - yil yanvar-fevral

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 34,6 % bilan 29154,6 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Mirishkor tumani 0,02 % bilan 17,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2025- yil yanvar-fevral, ming AQSH dollarida)




2025- yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 22,0 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 0,02 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,9 martaga ko'paydi.

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (100,0 %) ga tegishli bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI

2025- yil yanvar-fevral oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 3350,0 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,1 martaga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 4,0 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2025 yil yanvar-fevral)

1487,4 ming
AQSH doll.
Ulushi – 44,4 %



Rossiya

1005,0 ming AQSH
doll. *Ulushi – 30,0 %*



XXR

16,7 ming AQSH doll.
Ulushi – 0,5 %



Qozog'iston

30,1 ming AQSH
doll. *Ulushi – 0,9 %*



Qirg'iziston

167,5 ming AQSH
doll. *Ulushi – 5,0 %*



Eron

Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (3000,5 ming AQSH dollari), rangli metallar (258,6 ming AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.